KORRUPSIYAGA MUROSASIZLIK – BARÇAMIZNING BURÇIMIZ

Bugun mamlakatimizda barcha sohalarda ochiqlik, shaffoflik, qonuniylik va adolat tamoyillarini qaror toptirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda har bir tashkilot va korxona, ayniqsa, yirik sanoat korxonalarining mas’uliyati yanada ortadi. “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati nafaqat mamlakat metallurgiya sanoatining muhim korxonalaridan biri, balki minglab insonlarning mehnati, tajribasi va ishonchi mujassam bo‘lgan ulkan mehnat jamoasidir.

Men ushbu dargohda avval ham mehnat qilganman. Faoliyatimni qayta boshlaganimga uch oy bo‘layotgan bo‘lsa-da, shu qisqa davr mobaynida korxonamizda, ayniqsa, so‘nggi bir yil ichida amalga oshirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va ishlab chiqarishdagi katta o‘zgarishlarni ko‘rib, yana bir bor muhim haqiqatga amin bo‘ldim: aniq maqsad, qat’iyat va to‘g‘ri boshqaruv yondashuvi bo‘lsa, yirik korxonani ham sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Faoliyatim davomida bir qator tadbirkorlar bilan muloqot qildim. Ular ham korxonamizda so‘nggi bir yilda katta o‘zgarishlar amalga oshirilganini, ayniqsa, tadbirkorlar bilan munosabatlarda ochiqlik, adolat va shaffoflik tamoyillari kuchayganini ta’kidlashdi. Bu juda muhim natija.

Biz erishilgan natijalar bilan cheklanib qolmasligimiz kerak. Chunki ochiqlik va shaffoflik bir marta amalga oshiriladigan vazifa emas, balki doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan jarayondir.

Shu nuqtayi nazardan, korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish barchamizning umumiy vazifamizdir. Bunday illat jamoadagi ishonchni yemirib, halol mehnat qilayotgan xodimlarning rag‘batini so‘ndiradi, korxona nufuziga putur yetkazadi va taraqqiyotga to‘sqinlik qiladi. Eng xavflisi esa unga befarq qarashdir. “Bu mening ishim emas” degan qarashlar korrupsiya uchun qulay muhit yaratadi. Korrupsiyaviy xavflarning oldini olishda manfaatlar to‘qnashuvini barvaqt aniqlash ham muhim. Xodimning shaxsiy yoki oilaviy manfaati uning xizmat vazifalarini xolis bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan vaziyat yashirilmasligi, o‘z vaqtida ma’lum qilinishi lozim. Bu xodimning halolligi va mas’uliyati belgisidir.

Korrupsiyaga qarshi kurashishni faqat jazo choralari bilan bog‘lash to‘g‘ri emas. Eng samarali yo‘l korrupsiyaviy xavflarni barvaqt aniqlash, ularning oldini olish, ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish, xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirishdir. Bu bir kunlik tadbir emas, balki har bir rahbar va xodimning kundalik faoliyatida namoyon bo‘lishi kerak bo‘lgan tamoyildir.

Men ushbu jamoaga qayta kelganimdan buyon yana bir bor amin bo‘ldim: rahbariyatda aniq maqsad va qat’iyat, jamoada esa halollik va mas’uliyat bo‘lsa, har qanday katta vazifani amalga oshirish mumkin.

Korxonamizda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlar, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga inson omiliga, ishchi-xizmatchilarning mehnat sharoitini yaxshilashga, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgani alohida e’tiborga loyiq. Ishonamanki, “O‘zmetkombinat”ning kelajagi nafaqat zamonaviy texnologiyalar va yuqori ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga, balki qonuniylik, adolat, halollik va o‘zaro ishonchga ham bevosita bog‘liq.

Bugun qabul qilayotgan har bir qarorimiz ertangi taraqqiyotimiz uchun mustahkam poydevor bo‘ladi. Shunday ekan, kombinatda halollik, ochiqlik va adolatni umumiy qadriyatga aylantiraylik. Manfaatlar to‘qnashuvini yashirmaylik, tanish-bilishchilikka emas, bilim va mehnatga tayanaylik. Qonunni barcha uchun birdek ustuvor qilaylik!

Jahongir Mustafavey
“Özmetkombinat” AJ Boşqaruvi raisi örinbosari
– Umumiy masalalar böyicha direktor.